

DAVLAT BOSHQARUVINING SIVILIZATSIYAVIY IMKONIYATLARI

Kaxxorov Beknazar Xusan o'g'li

SamDU Kattaqo'rg'on filiali talabasi

Ilmiy rahbar: SamDU Kattaqo'rg'on filiali

Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrası

assistenti Jahongir Toshniyozovich Ibragimov

e-mail: Jahongir.5066@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, mamlakatlararo boshqarish tizimida tamaddunning imkoniyatlari, sivilizatsiyaning inson omiliga qay darajada bog'liqligini, madaniyat hukumat boshqaruvida qanday o'rin egallaganligi haqida so'z yurutilgan.*

Kalit so'zlar: *demokratiya, sivilizatsiya, madaniyat, tamaddun, inson, jamiyat, davlat.*

Abstract: *This article talks about the possibilities of civilization in the international management system, the extent to which civilization depends on the human factor, and the role of culture in government management.*

Key words: *democracy, civilization, culture, human, society, state.*

Аннотация: *В данной статье говорится о возможностях цивилизации в системе международного управления, о степени зависимости цивилизации от человеческого фактора, а также о роли культуры в государственном управлении.*

Ключевые слова: *демократия, цивилизация, культура, человек, общество, государство.*

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, tarixdan mamlakat, millat va elatlarni boshqaruvida juda ham keng ko'lamda tadbiriy-tashkiliy ishlar amalga oshirib kelingan. Davlat boshqaruvi oddiy tadbirlardan farqli o'laroq siyosiy nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, juda murakkab va jiddiy masala hisoblanadi.

Davlat boshqaruvi ham o'z shakllariga ega bo'lib, bu [davlat](#) mazmunining tashqi ko'rinishi, [davlat hokimiyati](#) yuqori organlarining huquqiy holati bilan belgilanadi. Boshqaruv shakli xarakteri [davlat boshlig'ining](#) huquqiy holati va vaziyatidan kelib chiqadi va [monarxiya](#) yoki [respublika](#) boshqaruv shakllari, davlat boshligining qaysi yol bilan saylanishi yoki tayinlanishi va hokimiyat qaysi yo'l bilan amalga oshirilishi bilan farqlanadi.

Darhaqiqat, keyingi vaqtlarda mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan yangi bosqichdagi islohotlar o'z mevalarini bera boshlab, O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda. Mazkur yangilanishlar davlat boshqaruvi tizimining samadorligini oshirishga qaratilgani bilan ham alohida ahamiyatga ega. Yaqin istiqboldagi innovatsion taraqqiyotimizning dasturilamali bo'lgan Harakatlar strategiyasining birinchi yo'nalishi ham aynan davlat boshqaruvi tizimi va jamiyat qurilishi sohasidagi islohotlarga bag'ishlangani bejiz emas. Yangi O'zbekistonda demokratik davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak”, degan yuksak g'oyaga asoslangan holda amalga oshirilmoqda.

ASOSIY QISM

Davlat boshqaruvida doim inson tamoyillari birinchi pog'onada turgan va bundan keyin ham shunday bo'ladi. Chunki davlatni jamiyat, jamiyatni insonlar tashkil etadilar, shu sababli davlat boshqaruvida uning poydevori bo'lgan insonga katta e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Bizning mamlakatimizda ham uzoq yillardan buyon “Davlat-Jamiyat-Inson” tamoyiliga amal qilib kelinmoqda. Mamlakatimizda 2023-yil hukumat tomonidan “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili” deya e'tirof etilgani bejiz emas.

Millatimizning poydevori bo'lmish insonlarni qadrini ulug'lash, ayniqsa, ularning bilimlilik salohiyatini oshirish maqsadida keng ko'lamli amaliy ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, 2022-yil ham "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla" yili ekanligini e'tiborga olsak, millatimizda doimiy yillar davomida inson qadri eng oliy o'rin hisoblanganligini bilishimiz mumkin. Inson, oila, jamiyat, mahalla, millat, mamlakat, hukumat, davlat va shulardan boshqa yana jamiyatga ta'luqli barcha tamoyillar yuqori pog'onada turadilar.

Tarixdan bizga ma'lumki sivilizatsiya, madaniyat va dinlar barcha barchasi inson huquqlarini shakllantirishga asos bo'lgan. Sivilizatsiyaning asl ma'nosi lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, fuqarolikka, davlatga taaluqli, tamaddun ma'nolarini beradi, keng ma'noda olib qarasaq ongli mavjudotlarnig har qanday turkumini o'z ichiga oladi, madaniyatga sinonim so'zlardan biri hisoblanadi. Shu sababli sivilizatsiya qaysi davlatda boshlanganligini tarix kitoblaridan o'qib qolsak, madaniyatning turlari mavjud ekanligi, o'sha mamlakatda rivojlanish bor ekanligiga guvox bo'lamiz.

Tamaddun so'ziga ko'p ilmiy va badiiy asarlarda ko'zimiz tushgan, uning asl qo'llanilishi jamiyatning rivojlanganlik darajasini namoyon etuvchi tushuncha hisoblanadi.

Davlat boshqaruvining sivilizatsiyaviy imkoniyatlari dunyo miqyosida keng darajada foydalanib kelinmoqda va buning mohiyati ham juda ko'p ma'nolarni beradi. Aytib o'tganimizdek, tamaddun jamiyatning rivojlanganlik belgisini aniqlovchi omil, shuning negizida, davlatning ham rivojlanganlik darajasini ko'rsatuvchi hisoblanadi. Davlatni boshqarishda doim zamon bilan hamnafas bo'lgan xolda, inson manfaatlarini ilgari surib, uning muammolarini hal etishda kelajak sari olg'a qadam bosiladi. Davlat boshqaruvida doimiy rivojlanish bo'lishi lozimligi ham bejiz emas, uni boshqarishda o'z xalqining, jamiyatining, insonlarining g'oyasidan doimo bir qadam oldinda turishi lozim. Mamlakat boshqaruvi jamiyatga ko'plab yangiliklarni olib kirgan xolda, millatning madaniyatini oshirgan holda tashkiliy tadbirlar amalga oshiriladi va uning keyingi qadamlarida yangidan yangi tamaddunlar paydo bo'ladi.

Demokratik davlat boshqaruvi bizning millatimizda ilgari suriladi, o'z jamiyatining fikridan kelib chiqqan xoldagina hukumat qaror qabul qiladi, shuning o'zidan bilishimiz kerakki, tamaddun insonning dunyo qarashi kengaygandagina rivoj topadi. Tamaddun esa jamiyat uchun imkoniyatlar darvozasini keng quloqda ochib beradi.

Bundan ikki ming yeti yuz yil muqaddam Osiyo hududida yaratilgan "Avesto" – kitobida ham, inson huquq va erkinliklari, millatlararo munosabatlar, o'zaro ishon g'oyalari ilgari surilgan. Ana shu davrda ham tamaddun inson omili tomonidan yaratilganiga guvoh bo'lamiz.

Shuningdek, sharqning buyuk huquqshunoslaridan biri Burhoniddin Marg'inoniy XII asrdayoq o'zining "Hidoya" asarida har bir insonning haq-huquqini saqlash zarurligi to'g'risida muhim g'oyani ilgari surgan edi. Buyuk vatandoshimiz Muhammad ibn Mahmud Ustrushoniyning XIII asrda yaratilgan "Jomi' ahkom as-sig'or" ("Bola huquqlari kodeksi") asari jahon tarixidagi bolalar huquqi bo'yicha dastlabki mukammal huquqiy manbadir. Unda bolalar, xususan, yetim bolalar huquqlari, bolalik va otalikni belgilash, bola tarbiyasi, bolaning otanasini oldidagi burch va majburiyatlari kabi masalalar atroflicha tahlil qilinib, islom huquqi asosida qanday yechimlar mavjudligi ko'rsatib berilgan. Ya'ni, ushbu asar bola huquqlari masalasiga tamal toshi aynan tarixiy Movarounnahr - bugungi O'zbekistonda qo'yilgani hamda islom huquqshunosligida G'arb sivilizatsiyasidan qariyb olti yuz yil avval bolalar huquqining to'la-to'kis o'rganilib, hayotga tadbiiq etilganidan darak beradi.

Faqat tarixga nazar solmasdan, hozirgi zamonamizga ham qaraydigan bo'lsak, texnika asri deb tan olingan bu davrda yangilikga o'ch bo'lgan jamiyatni ko'rishimiz mumkin, insonlarni lol qoldirish murakkablashib qoldi, ammo, sivilizatsiya rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizda boshqaruv organlari zamon bilan hamnafas bo'lgan holda, yangi yangi texnikalar orqali jamiyat bilan hamfikir bo'lmoqda, texnologiyalar rivojlangani bois, ochiqdan ochiq so'z erkinligiga ega jamiyatni ko'ra olamiz.

Amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlar insonlar hayotini,

dunyoqarashini hamda turmush tarzini tubdan o'zgartirmoqda. Jamiyatda “Yangi O'zbekistonni birgalikda barpo etamiz” degan ulug'vor maqsad umumxalq harakatiga aylandi. Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini, umume'tirof etilgan xalqaro standartlar hamda O'zbekistonning inson huquqlari sohasidagi majburiyatlarini, shuningdek, BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo'mitalarining tavsiyalarini hisobga olgan holda qonunchilikni takomillashtirib borish ishlarini biz albatta, davom ettiramiz.

Shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlament va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini yanada oshirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash, milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlarga muvofiqlashtirish eng dolzarb vazifalarimiz sirasiga kiradi. Yurtimizning inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro reytinglar va indekslar (qonun ustuvorligi, norma ijodkorligi sifati, xukumat faoliyati samaradorligi, so'z va axborot erkinligi, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurash, biznesni olib borish shart-sharoitlari, global raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish va boshqalar) bo'yicha dunyodagi 50 ta yetakchi mamlakat qatoriga kirishi -bizning strategik maqsadimizdir.

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, davlat va jamiyatning boshqaruvida tamaddun tamoyili zarur hisoblanadi. Sivilizatsiya bo'lmaganida hozirda zamonamiz ancha qoloq bo'lgan bo'lar edi. Davlat boshqaruvida boshqaruvchilar doimo yangiliklarga intilgan xolda masalalarga yechim topish kelishgan.

Oddiy bir mahalladagi, fuqarolarning mushkulini yengil qilish uchun mahalla yig'ini tashkil etilgan, ushbu tashkilot a'zolari qurultoy o'tkazish barobarida o'z mahalla a'zolarini mushkullari va muammolariga yechim qidirishadi, bunday yig'inlar turli xil to'palonlarsiz o'tishini ta'minlagan holda madaniyatli insonlar qatnashishi, bir birlarini hurmat qilishlari zarur bo'ladi, ana shundagina muammoga yechim topish mumkin.

Madaniyat insonning o'z qo'lida shakllanuvchi tushuncha bo'lib, u ko'zga

bir soʻz orqali koʻrinmasligi mumkin, ammo bir insonning hatti harakatlari, soʻzlashishi, kiyinishi, yurish-turishi va hokazolarda mujassam boʻladi.

Oʻz millatimizni misol qilib oladigan boʻlsak, hukumatimiz demokratik tizimda ekan doimo xalq soʻzi orqali ish koʻradi. Inson qadri oliy oʻrinlardan biri hisoblanadi, islom dinida ham inson yer yuzidagi barcha jonzotlar ichra eng oliy toifalilardan hisoblanishi muqaddas kitoblarda ham bitilganiga guvoh boʻlganmiz.

Mamlakatlar boshqaruvida sivilizatsiyaga imkon beruvchi omillar juda koʻp boʻlib, agar mamlakat oʻz fuqarolariga shart-sharoitlarni keng koʻlamda yaratib bersa, uning millati rivojlanish uchun ilm izlab, oʻz Vatani kelajagi uchun ravnaq qoʻsha oladi. Sivilizatsiya boʻlishida, davlat va mamlakatlar oʻz xalqi uchun imkoniyatlar yaratib berishi kerak, ana shundagina rivojlanish boʻladi u yerda.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet havolar:

1. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi kitobining taqdimoti. Toshent-2021.
<https://en.ppt-online.org/1208535>
2. Forobiy, Fozil odamlar shahri, T., 1993.
3. Temur tuzuklari, T., 1996.
4. Nikkolo Makiavelli, Gosudar, M., 1990.
5. Gobbs, Sochineniye v 2-x tomax, M., 1992.
6. Aʼzamxoʻjayev A. A., Oʻzbekistan Respublikasi davlat mustaqilligining huquqiy asoslari, T., 1993.
7. MATBUOT ANJUMANI Davlat boshqaruvining sivilizatsiyaviy imkoniyatlari. <https://paxtachi.uz/ru/node/3359>
8. Tamaddun. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tamaddun>